


## SURXONDARYO VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-may)


Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 3986,9 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,3 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 356,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 26,6 %), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 3630,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 3,5 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 364,3 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,6 % ga ko'paygan) tashkil etdi.

### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Termiz shahrida (16,9%), Termiz (6,1 %), Boysun (4,0%), Denov (3,5 %) Sho'rchi (2,7 %) va Muzrabot tumanlarida (2,3%) qayd etildi.


## Chakana savdo tovar aylanmasining o`rish sur`atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o`tgan yilning mos davriga nisbatan 26,6% ga o`sdi va 356,0 mlrd. so`mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 8,9 % ulushiga to`g`ri keladi.

Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra 3630,9 mlrd. so`mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar- may oylariga nisbatan 3,5 % ga o`sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 91,1 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)



Chakana savdo aylanmasida  
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Muzrabot (99,5 %), Uzun (99,0 %), va Denov (97,4%)

tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 8,9 % ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz shahrida (28,0 %), Termiz (15,6%) va Jarqo'rg'on tumanlarida (5,4 %) kuzatilgan.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Termez shahri (22,1 foiz), Denov tumani (21,0 foiz), Sho'rchi (9,0 foiz), Sherabod (5,8 foiz) va Jarqo'rg'on (5,4%) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.


**Tumanlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda**



**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalar  
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>356,0</b>	<b>126,6</b>	<b>3630,9</b>	<b>103,5</b>
Termiz Sh.	247,5	217,2	635,5	99,0
Oltinsoy	4,7	47,9	167,0	104,5
Angor	6,1	60,0	173,6	103,8
Boysun	6,8	67,6	166,7	106,4
Muzrabot	0,9	18,1	157,3	104,9
Denov	22,0	70,5	816,0	104,8
Jarqo`rg`on	11,5	72,4	203,4	102,5
Qumqo`rg`on	6,5	55,6	168,2	105,3
Qiziriq	5,7	61,6	172,2	103,7
Sariosiyo	6,9	71,4	162,7	102,9
Termiz	16,0	114,4	86,5	104,8
Uzun	1,5	19,7	152,8	105,6
Sherobod	8,9	56,2	221,3	104,7
Sho`rchi	11,0	63,7	347,7	104,7

**Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**



Jumladan, 2019 yilning yanvar- may oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,0 % ni tashkil etib, 81,5 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 6,6 % o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 89,6 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

**SURXONDARYO VILOYATINING  
ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**


(2019 yil yanvar- may)

Yanvar-may oylarida viloyat bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 970,8 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 10,4 % ga o`tdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajmi kichik tadbirkorlik sub`ektlariga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar- may oyilari yakunlariga ko`ra, 652,3 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 6,8 % ga o`tdi. Ushbu sektorning

umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 67,2 % ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tumanlar bilan taqqoslaganda, Termiz (89,4%), Angor (87,8%), Boysun (87,5%) va Sariosiyo (82,2%) tumanlarida yuqori bo'lgan.

### Yirik va kichik korxonalar ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 32,8 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarining ulgurji savdo aylanmasining aksariyati Qumqo'rg'on (67,3%), Muzrabot (57,6%) va Jarqo'rg'on (51,0%) tumanlarida kuzatildi.

### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	970,8	110,4	318,5	118,6	652,3	106,8
Termiz sh.	178,7	102,7	76,7	97,8	102,0	106,8
Oltinsoy	33,3	111,2	16,4	114,9	16,9	107,7
Angor	81,1	113,8	9,9	174,8	71,2	108,6
Boysun	4,3	97,3	0,5	59,1	3,8	107,2
Muzrabot	59,9	127,8	34,6	153,1	25,3	104,3
Denov	144,4	109,2	38,9	112	105,5	108,2
Jarqo`rg`on	87,4	119,2	44,6	136	42,8	105,6
Qumqo`rg`on	40,6	116,9	27,3	122,8	13,3	106,5
Qiziriq	87,2	109,2	21,2	117,9	66,0	106,6
Sariosiyo	32,8	107	5,9	106,3	26,9	107,1
Termiz t.	80,7	111,3	8,5	159,5	72,2	107,4
Uzun	23,7	98,6	5,4	81,2	18,3	105,2
Sherobod	86,8	115	18,8	178,1	68,0	104,7
Sho`rchi	29,9	99,5	9,8	89,6	20,1	105,1



### Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o`tgani yilga nisbatan o`zgarish sur`atlari, (%)



Ulgurji tovar aylanmasida o`tgani yilning shu davriga nisbatan eng quyi o`shish sur`ati Boysun tumanida (97,3 %) va eng yuqori o`shish esa Muzrabot tumanida (127,8%) qayt etilgan.

Surxondaryo viloyat statistika  
boshqarmasi tashqi iqtisodiy faoliyat va  
savdo statistikasi bo'limi  
(0371) 230-85-82